



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR.....	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY.....	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSİYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODELİ ASOSIDA HISOBGA OLIŞ METODİKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLIŞ, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODELİ VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	



DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH

G'ayimov Abdumalik Norbekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat moliyaviy nazoratida «xavf tahlili» tushunchasining iqtisodiy mohiyati ochib berilib, uning audit nazariyasidagi «audit xatari» tushunchasidan funksional-iqtisodiy jihatdan farqi asoslangan. Xavf tahlilining oldini olishga va budjet manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan mazmuni aniqlashtirilib, uning analitik, rejalashtirish hamda preventiv funksiyalari tavsiflangan. Tadqiqotda davlat moliyaviy nazorati xavflarining budjet, operatsion, muvofiqlik, korrupsiyaviy va axborot texnologiyalariga oid turlarni qamrab oluvchi kompleks tasnifi ishlab chiqilgan. Mazkur tasnif nazorat obyektlarini xavf darajasi bo'yicha baholash modelida qo'llaniladigan indikatorlar tizimi bilan bog'langan. Qiyosiy tahlil asosida xavf tahlili butun nazorat tizimi darajasida obyektlarni saralash va resurslarni taqsimlashga, audit xatari esa alohida audit topshirig'i doirasida moliyaviy hisobotning ishonchlilikini baholashga qaratilganligi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalaridan davlat moliyaviy nazoratida xavf tahlilini amalga oshirish standartlarini ishlab chiqish, nazorat tadbirlarini xavf asosida rejalashtirish hamda ichki va tashqi audit amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Kalitsso'zlar: davlat moliyaviy nazorati, xavf tahlili, audit xatari, xavf, xavflarning tasnifi, budjet xavfi, korrupsiyaviy xavf, xavfga yo'naltirilgan nazorat, xavf indikatorlari, jamlangan baholash.

Abstract. This article examines the economic substance of risk analysis in public financial control and substantiates its functional and economic distinction from the concept of audit risk in auditing theory. The preventive and budget-oriented nature of risk analysis is clarified, and its analytical, planning, and preventive functions are described. The study develops a comprehensive classification of public financial control risks encompassing budgetary, operational, compliance, corruption, and information technology risks. The proposed classification is linked to a system of indicators used in a model for assessing control entities according to their level of risk. Based on comparative analysis, the study demonstrates that risk analysis is applied at the level of the overall control system to select control entities and allocate resources, whereas audit risk is assessed within an individual audit engagement to evaluate the reliability of financial statements. The findings may be used in developing standards for risk analysis in public financial control, planning control activities on a risk basis, and improving internal and external audit practices.

Keywords: public financial control, risk analysis, audit risk, risk, risk classification, budgetary risk, corruption risk, risk-based control, risk indicators, aggregate assessment.

Аннотация. В статье раскрывается экономическая сущность понятия «анализ рисков» в системе государственного финансового контроля и обосновывается его функционально-экономическое отличие от понятия «аудиторский риск», используемого в теории аудита. Уточнена превентивная и бюджетно ориентированная направленность анализа рисков, охарактеризованы его аналитическая, плановая и предупредительная функции. В исследовании разработана комплексная классификация рисков государственного финансового контроля, включающая бюджетные, операционные, комплаенс-, коррупционные и информационно-технологические риски. Предложенная классификация связана с системой индикаторов, используемых в модели оценки объектов контроля по уровню риска. На основе сравнительного анализа показано, что анализ рисков применяется на уровне всей системы контроля для отбора объектов и распределения ресурсов, тогда как аудиторский риск оценивается в рамках отдельного аудиторского задания в целях определения достоверности финансовой отчетности. Результаты исследования могут быть использованы при разработке стандартов проведения анализа рисков в государственном финансовом контроле, планировании контрольных мероприятий на основе рисков, а также совершенствовании практики внутреннего и внешнего аудита.

Ключевые слова: государственный финансовый контроль, анализ рисков, аудиторский риск, риск, классификация рисков, бюджетный риск, коррупционный риск, риск-ориентированный контроль, индикаторы риска, агрегированная оценка.



KIRISH

Davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirish bugungi kunda davlat moliyasini boshqarishning markaziy masalalaridan biriga aylandi. O'zbekistonda davlat sektorining iqtisodiyotdagi salmog'i yuqori bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-son «2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonunining 1-ilovasiga muvofiq, 2025-yil uchun Davlat budjeti xarajatlari davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlarni inobatga olgan holda 344,8 trln so'mni, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari esa 480,5 trln so'mni tashkil etishi prognoz qilingan [1]. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yildagi Davlat budjeti ijrosi bo'yicha tashqi audit va baholash natijalariga ko'ra, Davlat budjeti xarajatlari yil yakunida 383,9 trln so'mni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 20,8 foizni tashkil etgan [2]. Bunday katta hajmdagi davlat mablag'laridan maqsadli, qonuniy va natijador foydalanishni ta'minlash kuchli hamda manzilli moliyaviy nazorat tizimini talab qiladi. Jahon amaliyotida ushbu vazifani amalga oshirishda INTOSAI standartlari doirasida yalpi nazorat bilan bir qatorda xavfga yo'naltirilgan tanlama nazorat usullaridan foydalanish amaliyoti kengayib bormoqda.

Xavfga yo'naltirilgan yondashuvning metodologik o'zagini xavf tahlili tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son «Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan Oliy audit organlarining xalqaro standartlari (ISSAI) asosida tashqi audit tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazishni tashkil etish, moliyaviy, samaradorlik va muvofiqlik auditlarini amalga oshirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratida xavf tahlilni amalga oshirish standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifalari belgilangan [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son «Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bilan davlat moliyaviy nazoratining auditga asoslangan shakllarini yanada rivojlantirish, shuningdek, 2025–2026-yillarda strategik audit va axborot texnologiyalari auditini joriy etish belgilandi [4]. Biroq ushbu standartlarni ishlab chiqish, eng avvalo, xavf tahlili tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ilmiy asoslashni va davlat moliyaviy nazorati risklarini tizimli tasniflashni talab etadi.

Amaliyotda xavf tahlili ko'pincha tijorat auditidagi «audit xatari» tushunchasi bilan aralashtirib yuborilmoqda, biroq mazkur tushunchalar funksional-iqtisodiy mazmuni, qamrovi va maqsadiga ko'ra farqlanadi. Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati risklarining yagona, amalda qo'llash uchun yaroqli, baholash indikatorlariga bog'langan tasnifi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu nazariy-metodologik bo'shliqlar nazorat tadbirlarini xavf asosida rejalashtirishni va xavf indikatorlari tizimini shakllantirishni qiyinlashtiradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — davlat moliyaviy nazoratida xavf tahlilining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, uni audit xataridan funksional-iqtisodiy jihatdan farqlash hamda davlat moliyaviy nazorati risklarining kompleks tasnifini ishlab chiqib, uni nazorat obyektlarini baholash modelining indikatorlar bazasi sifatida asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xavf va xavf tahlili masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Audit nazariyasi bo'yicha taniqli tadqiqotchilar A.A. Arens va J.K. Loebbecke audit xatari modelini ($AR = IR \times CR \times DR$) ishlab chiqib, uning ichki xavf (inherent risk), nazorat xavfi (control risk) va aniqlash xavfi (detection risk) komponentlarini ilmiy asoslaganlar (Arens, Loebbecke). Ushbu yondashuv Xalqaro audit standarti ISA 315 (2019-yil tahriri)da rivojlantirilib, ichki xavfga ta'sir etuvchi murakkablik, subyektivlik, o'zgaruvchanlik, noaniqlik va firibgarlikka moyillik kabi omillar, shuningdek, «muhim xavf» (significant risk) tushunchasi belgilangan (ISA 315, 2019).

Xavfni boshqarishning umummetodologik asoslari COSO va ISO hujjatlarida shakllantirilgan. COSO ERM (2017) korporativ xavfni boshqarishning besh komponent va yigirma tamoyildan iborat modelini, ISO 31000:2018 esa xavfni boshqarishning universal tamoyillari, asosi va jarayonini belgilaydi (COSO, 2017; ISO 31000, 2018). COSO «Ichki nazorat — integratsiyalashgan model» (2013) hujjatida risklarni baholash ichki nazoratning markaziy komponenti sifatida qaraladi (COSO, 2013).

Davlat moliyaviy nazoratida xavfni hisobga olish va nazoratni rejalashtirish masalalari MDH olimlari — V.V. Bursev hamda S.O. Shoxin tadqiqotlarida yoritilgan (Bursev, 2002; Stepashin va boshq., 2004). Xavfni baholashning psixologik va prognostik jihatlari D.A. Moore va P.E. Tetlock ishlarida tahlil qilingan: ular xavfni baholashda inson mulohazasining cheklavlari, ortiqcha ishonch (overconfidence) hamda prognoz sifati muammolarini o'rganib, baholashda subyektivlikni kamaytirish va uni obyektiv ma'lumotlar bilan muvozanatlash zarurligini ko'rsatganlar (Moore va boshq., 2017). O'zbekistonlik olimlardan N.K. Rizayev, R.D. Dusmuratov va X.H. Nazarov auditning xalqaro standartlarini milliy sharoitga tatbiq etish, B.T. Turabov esa xavfga yo'naltirilgan nazorat masalalarini tadqiq etganlar (Rizayev va boshq., 2020; Turabov, 2022).



Mavjud tadqiqotlarda, asosan, umumiy-nazariy masalalar yoritilgan bo'lsa-da, davlat moliyaviy nazorati kontekstida «xavf tahlili» va «audit xatari» tushunchalari o'rtasidagi funksional-iqtisodiy farq yetarlicha asoslanmagan, risklarning amalda qo'llashga yaroqli, baholash indikatorlariga bog'langan kompleks tasnifi ishlab chiqilmagan. Ushbu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning yo'nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv hamda tasniflash usullaridan foydalanildi. Xavf-tahlilining tushunchaviy apparati va metodologiyasi xavfni boshqarishning xalqaro hujjatlari (COSO ERM, ISO 31000, COSO Internal Control) hamda Oliy audit organlarining xalqaro standartlari (ISSAI) tahlili asosida shakllantirildi. Audit xatari modeli Xalqaro audit standarti ISA 315 va audit nazariyasi klassiklari ishlari asosida o'rganildi. Risklarning tasnifi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan Budjet kodeksining davlat moliyaviy nazoratiga oid 170–176-moddalari [5], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son Farmoni [3] va 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son Farmoni [4], shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining rasmiy ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Tasnifni baholash modelining indikatorlar bazasi sifatida amaliy baholash tizimiga aylantirishda iyerarxiyalar tahlili (AHP) metodining konseptual asoslari (Saati, 1993) inobatga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xavf-tahlilining iqtisodiy mohiyati.

«Xavf» (risk) tushunchasi umumiy ma'noda kutilgan natijadan salbiy tomonga og'ish ehtimolini anglatadi. Davlat moliyaviy nazorati kontekstida xavf — davlat mablag'laridan foydalanishda qonunbuzilish, maqsadsiz yoki samarasiz sarflash, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishmaslik ehtimolidir. Shunga muvofiq, xavf tahlili — davlat moliyaviy nazorati obyektlari va jarayonlaridagi xavflarni identifikatsiya qilish, baholash, toifalash hamda ular bo'yicha nazorat qarorlarini qabul qilishga qaratilgan tizimli jarayondir. Xavf tushunchasini noaniqlik (uncertainty) tushunchasidan farqlash lozim: noaniqlik natija ehtimolligini aniqlab bo'lmaydigan holat bo'lsa, xavf — ehtimolli muayyan darajada baholanishi mumkin bo'lgan salbiy natijadir. Aynan xavfning o'lchanuvchanligi (ehtimollik va ta'sir orqali) uni tahlil qilish hamda boshqarish imkonini yaratadi.

Xavf-tahlili davlat moliyaviy nazoratida uchta asosiy funksiyani bajaradi: analitik funksiya (mavjud xavflarni tizimli tahlil qilish), rejalashtirish funksiyasi (nazorat tadbirlarini xavf darajasiga muvofiq rejalashtirish) va preventiv funksiya (xavflarni erta aniqlash orqali huquqbuzarliklarning oldini olish). Aynan preventiv funksiya xavf tahlilini reaktiv (sodir bo'lgan huquqbuzarlikka javob berish) nazoratdan proaktiv (xavfning oldini olish) nazoratga o'tishning asosiy vositasiga aylantiradi. Shu ma'noda xavf tahlilining davlat moliyaviy nazoratidagi o'ziga xos iqtisodiy mazmuni uning preventiv va budjetga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi: u nafaqat sodir etilgan qonunbuzilishni aniqlashga, balki budjet mablag'lariga zarar yetkazilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Xavf tahliliga bo'lgan ehtiyoj amaliy ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmida o'tkazilgan audit tadbirlari natijasida 5,6 trln so'mlik samarasiz budjet xarajatlari qisqartirilgan hamda budjetga 5 trln so'mlik qo'shimcha tushum imkoniyati aniqlangan. Shuningdek, «Masofaviy audit» axborot tizimi orqali 4 trln so'mlik kamchiliklar bartaraf etilgan [19]. Mazkur natijalar budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq xavflarni erta aniqlash, samarasiz xarajatlarning oldini olish va nazorat tadbirlarini ustuvor yo'nalishlarga qaratishda xavf tahlilidan foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

Xavf-tahlili va audit xatarining funksional-iqtisodiy farqi.

Xavf-tahlili tushunchasini audit nazariyasidagi «audit xatari» (audit risk) tushunchasidan farqlash muhim ahamiyatga ega. Xalqaro audit standarti ISA 315 ga muvofiq, audit xatari — auditorning moliyaviy hisobotda moddiy xato mavjud bo'lsa-da, noto'g'ri (asossiz ijobiy) xulosa berishi xavfidir. Audit xatari modeli uch komponentning ko'paytmasi ko'rinishida ifodalanadi: $AR = IR \times CR \times DR$, bunda IR — ichki xavf, CR — nazorat xavfi, DR — aniqlash xavfi. Ushbu model alohida audit topshirig'i doirasida moliyaviy hisobotning ishonchligini baholashga qaratilgan (ISA 315, 2019; Arens, Loebbecke).

Xavf tahlili va audit xatari turli daraja va maqsadlarda qo'llanadigan o'zaro bog'liq tushunchalardir. Agar audit xatari alohida audit topshirig'i darajasida qo'llanilsa, xavf tahlili butun nazorat tizimi darajasida, nazorat obyektlarini saralash va resurslarni taqsimlashga yo'naltiriladi. Boshqacha aytganda, audit xatari alohida audit topshirig'i doirasida baholanadigan kategoriya bo'lsa, xavf tahlili nazorat obyektlarini saralash va nazorat resurslarini taqsimlashda qo'llanadigan kengroq boshqaruv jarayonidir. Mazkur farqlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval
Xavf-tahlili va audit xatarining qiyosiy tahlili¹

Tasniflash belgisi	Xavf-tahlili	Audit xatari
Qamrovi	Butun nazorat tizimi; obyektlarni saralash	Alohida audit topshirig'i
Maqsadi	Resurslarni xavfli sohalariga yo'naltirish	Noto'g'ri xulosa berish xavfini kamaytirish
Tuzilishi	Mazmuniy tasnif: budjet, operatsion, muvofiqlik, korrupsion, axborot-texnologik xavflar	$AR = IR \times CR \times DR$ (ko'paytma modeli)
Standart asosi	COSO ERM, ISO 31000, ISSAI	ISA 315, ISA 200
Darajasi	Strategik va tizimli (makro)	Topshiriq darajasida (mikro)
Asosiy funksiyasi	Preventiv; obyektlarni saralash va rejalashtirish	Ishonchlilikni baholash; xulosa berish

Ushbu farqlarni anglash amaliy ahamiyatga ega: davlat moliyaviy nazoratida xavf tahlili dastlab tizim darajasida obyektlarni saralash va resurslarni taqsimlash uchun qo'llaniladi; so'ngra tanlangan obyekt doirasida, audit o'tkazish jarayonida audit xatari modeli bo'yicha aniqroq baholash amalga oshiriladi. Demak, bu ikki tushuncha bir-birini inkor etmaydi, balki nazoratning turli — strategik (makro) va topshiriq (mikro) — darajalarida bir-birini to'ldiradi. Mazkur ikki darajali yondashuv davlat moliyaviy nazoratining izchilligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati risklarining kompleks tasnifi.

Xavf-tahlilining muhim nazariy masalasi — risklarni ilmiy asosda tasniflashdir. Risklarni turli belgilar bo'yicha toifalash mumkin: yuzaga kelish manbayiga ko'ra — ichki va tashqi; boshqariluvchanlik darajasiga ko'ra — boshqariluvchi va boshqarilmaydigan; vaqt ufqiga ko'ra — joriy va strategik xavflar. Biroq davlat moliyaviy nazorati uchun eng ahamiyatli tasnif — xavfning mazmuni (sohasi) bo'yicha tasnifdir. Mazkur tasnifga ko'ra, besh asosiy xavf turi ajratiladi (2-jadval).

2-jadval
Davlat moliyaviy nazoratida risklarning mazmuniy kompleks tasnifi²

Xavf turi	Iqtisodiy mazmuni	Xos indikatorlar va misollar
Budjet xavfi	Budjet mablag'larining noto'g'ri taqsimlanishi va sarflanishi	Budjet ijrosi darajasi; mablag'larning yil oxirida to'planib sarflanishi; o'zlashtirilmaslik
Operatsion xavf	Jarayonlar, tizimlar va xodimlar faoliyatidagi kamchiliklar	Hujjatlashtirish xatolari; xodimlar almashinuvi; ichki nazoratning zaifligi
Muvofiqlik xavfi	Qonun va normativ talablarga rioya etmaslik	Smeta-shtat intizomining buzilishi; avvalgi tekshirishlarda aniqlangan kamchiliklar soni
Korrupsion xavf	Manfaatlar to'qnashuvi va vakolatlardan suiiste'mol qilish	Davlat xaridlaridagi noodatiy holatlar; yagona yetkazib beruvchiga yuqori darajada bog'liqlik; shikoyatlar
Axborot-texnologik xavf	Axborot tizimlari va ma'lumotlar bilan bog'liq xavflar	Tizim uzilishlari; ma'lumotlar yaxlitligining buzilishi; kiberxavfsizlik tahdidlari

Budjet xavfi davlat moliyaviy nazoratidagi asosiy xavf turlaridan biri bo'lib, budjet mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi bilan bog'liq (prognoz ko'rsatkichlarining asossizligi, mablag'larning o'zlashtirilmasligi, maqsadsiz sarflanishi, yil oxirida to'planib qolishi). Operatsion xavf tashkilotning ichki jarayonlari, tizimlari va xodimlari faoliyatidagi kamchiliklar (hujjatlashtirish xatolari, inson omili, ichki nazorat tizimining zaifligi) natijasida yuzaga keladi hamda ko'pincha boshqa xavf turlarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Muvofiqlik xavfi nazorat objekti faoliyatining qonun hujjatlari va belgilangan talablarga muvofiq bo'lmashligi (smeta-shtat intizomining buzilishi, davlat xaridlari tartibiga rioya etmaslik) bilan bog'liq.

Korrupsion xavf manfaatlar to'qnashuvi va vakolatlardan suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, davlat xaridlari, tenderlar hamda yirik xarajatlar sohasida yuqori bo'ladi; uni erta aniqlash korrupsiya profilaktikasining muhim vositasidir. Axborot-texnologik xavf axborot tizimlari va ma'lumotlar bilan bog'liq xavflarni (ma'lumotlarning

¹ Manba: xalqaro standartlar va ilmiy manbalar asosida muallif ishlanmasi.

² Manba: COSO ERM, ISO 31000 va milliy nazorat amaliyoti asosida muallif ishlanmasi.



buzilishi, kiberxavfsizlik tahdidlari, tizim nosozliklari) qamrab olib, nazoratni raqamlashtirish sharoitida uning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu xavf turlari amalda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi: masalan, operatsion xavfning kuchayishi korrupsion va muvofiqlik xavflarining ortishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun har bir obyekt bo'yicha barcha xavf turlarini kompleks baholash maqsadga muvofiqdir.

Tasnifni indikatorlar bazasi sifatida operatsionallashtirish.

Taklif etilayotgan tasnifning ilmiy-amaliy qiymati uning baholash modelining indikatorlar bazasi sifatida operatsionallashtirilishida namoyon bo'ladi. Har bir xavf turiga muayyan o'lchanadigan indikatorlar (ko'rsatkichlar) guruhi mos keltiriladi: budget xavfiga — budget ijrosi darajasi, mablag'larning yil oxirida to'planib sarflanishi, kreditorlik va debitorlik qarzlarning o'sishi; operatsion xavfga — hujjatlashtirish sifati, xodimlar almashinuvi darajasi, ichki nazorat holati; muvofiqlik xavfga — avvalgi tekshirishlarda aniqlangan kamchiliklar soni, smeta intizomining buzilishi; korrupsiyaviy xavfga — davlat xaridlaridagi noodatiy holatlar, yagona yetkazib beruvchiga yuqori darajada bog'liqlik; axborot-texnologik xavfga — axborot tizimlaridagi uzilishlar va ma'lumotlar yaxlitligining buzilishi.

Mazkur indikatorlar har bir obyekt bo'yicha ball berish shkalasi asosida baholanib, jamlangan xavf bahosiga birlashtiriladi. Indikatorlarning vazn koeffitsiyentlari iyerarxiyalari tahlili (AHP) usuli doirasida ekspert baholashi va juft taqqoslash natijalari asosida aniqlanishi mumkin [16]. Bunda xavf turlarining davlat moliyaviy manfaatlariga ta'sir darajasi, yuzaga kelish ehtimoli va mumkin bo'lgan oqibatlarini hisobga olinadi. Shu tariqa mazmuniy tasnif tavsifiy baholashdan nisbatan standartlashtirilgan, miqdoriy va takroriy qo'llash mumkin bo'lgan baholash tizimiga o'tkaziladi. Tasnifning indikatorlar bazasi sifatida amaliy baholash tizimiga aylantirilishi nazorat obyektlarini xavf darajasi bo'yicha saralash modelining metodologik asosini shakllantiradi hamda xavf tahlilini «Masofaviy audit» axborot tizimi bilan integratsiyalashtirilgan uzluksiz monitoring rejimida amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat moliyaviy nazoratida xavf tahlili — xavflarni identifikatsiya qilish, baholash, toifalash va ular bo'yicha nazorat qarorlarini qabul qilishga qaratilgan tizimli jarayon bo'lib, uning analitik, rejalashtirish hamda preventiv funksiyalari nazoratni reaktiv yondashuvdan proaktiv, preventiv yondashuvga o'tkazadi. Xavf-tahlilining davlat moliyaviy nazoratidagi iqtisodiy mohiyati aynan uning preventiv va budgetga yo'naltirilgan mazmunida namoyon bo'ladi.

Xavf-tahlili tijorat auditidagi audit xataridan funksional-iqtisodiy jihatdan farq qiladi: audit xatari ($AR = IR \times CR \times DR$) alohida audit topshirig'i darajasida moliyaviy hisobotning ishonchligini baholashga, xavf tahlili esa butun nazorat tizimi darajasida obyektlarni saralash va resurslarni taqsimlashga qaratilgan. Ushbu ikki tushuncha bir-birini inkor etmaydi, balki nazoratning strategik (makro) va topshiriq (mikro) darajalarida bir-birini to'ldiradi.

Davlat moliyaviy nazorati risklarining mazmuniy kompleks tasnifi (budget, operatsion, muvofiqlik, korrupsion va axborot-texnologik xavflar) ishlab chiqildi. Ushbu tasnif xavflarni tizimli identifikatsiya qilish va har bir obyekt bo'yicha kompleks baholash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan tasnif baholash modelining indikatorlar bazasi sifatida operatsionallashtirildi: har bir xavf turiga o'lchanadigan indikatorlar guruhi mos keltirilib, ular ball berish shkalasi va vaznlash (AHP) orqali integral xavf bahosiga birlashtiriladi. Bu mazmuniy tasnifni tavsifiy baholashdan nisbatan standartlashtirilgan va miqdoriy baholash tizimiga o'tkazishga xizmat qiladi.

Tavsiyasifatida davlat moliyaviy nazoratida xavf tahlilini amalga oshirish standartlarini ishlab chiqishda mazkur tushunchaviy farqlar va xavflarning kompleks tasnifidan metodologik asos sifatida foydalanish, shuningdek, tasnifga asoslangan xavf indikatorlari tizimini Hisob palatasining «Masofaviy audit» avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan integratsiyalashtirish orqali uzluksiz xavf monitoringini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-son «2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonuni [Elektron resurs] // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. — URL: <https://lex.uz/docs/-7277618> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2025-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobot tashqi audit va baholashdan o'tkazildi [Elektron resurs]. — 2026-yil 29-iyun. — URL: <https://ach.gov.uz/uz/events-nav/news/detail/6a4227ed3a716b2dfd44e3e9> (murojaat sanasi: 22.07.2026).



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son «Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni [Elektron resurs] // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. — URL: <https://lex.uz/docs/-5607471> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son «Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni [Elektron resurs] // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. — URL: <https://lex.uz/docs/-7015258> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
5. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi: 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son Qonun bilan tasdiqlangan [Elektron resurs] // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. — URL: <https://lex.uz/docs/-2304138> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
6. Arens A.A., Loebbecke J.K. *Auditing: An Integrated Approach*. — 7th ed. — Upper Saddle River, NJ : Prentice Hall, 1997. — XVIII, 823 p. — ISBN 0-13-570409-X.
7. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. *Internal Control — Integrated Framework* [Elektron resurs]. — COSO, 2013. — URL: <https://www.coso.org/internal-control> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
8. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. *Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance* [Elektron resurs]. — COSO, 2017. — URL: <https://www.coso.org/enterprise-risk-management> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
9. International Auditing and Assurance Standards Board. *ISA 315 (Revised 2019). Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement* [Elektron resurs]. — New York : IFAC, 2019. — URL: <https://www.iaasb.org/publications/isa-315-revised-2019-identifying-and-assessing-risks-material-misstatement> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
10. ISO 31000:2018. *Risk Management — Guidelines*. — 2nd ed. — Geneva : International Organization for Standardization, 2018. — 16 p. — URL: <https://www.iso.org/standard/65694.html> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
11. International Organization of Supreme Audit Institutions. *ISSAI 100: Fundamental Principles of Public-Sector Auditing* [Elektron resurs]. — Vienna : INTOSAI, 2019. — URL: <https://www.issai.org/pronouncements/issai-100-fundamental-principles-of-public-sector-auditing/> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
12. International Organization of Supreme Audit Institutions. *ISSAI 400: Compliance Audit Principles* [Elektron resurs]. — Vienna : INTOSAI, 2019. — URL: <https://www.issai.org/pronouncements/issai-400-compliance-audit-principles/> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
13. Moore D.A., Swift S.A., Minster A., Mellers B., Ungar L., Tetlock P.E., Yang H.H.J., Tenney E.R. Confidence Calibration in a Multiyear Geopolitical Forecasting Competition // *Management Science*. — 2017. — Vol. 63, No. 11. — P. 3552–3565. — DOI: 10.1287/mnsc.2016.2525.
14. Бурцев В.В. *Организация системы государственного финансового контроля в Российской Федерации: теория и практика*. — Москва : Дашков и К°, 2002. — 496 с.
15. Dismuratov R.D., Rizayev N.K., Nazarov X.H. *Moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari: o'quv qo'llanma*. — Toshkent : TDAU, 2020. — 512 b.
16. Саати Т.Л. *Принятие решений. Метод анализа иерархий* / пер. с англ. Р.Г. Вачнадзе. — Москва : Радио и связь, 1993. — 314, [1] с. — ISBN 5-256-00443-3.
17. Turabov B.T. O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati va uni takomillashtirish yo'nalishlari // *International Finance & Accounting*. — 2022. — № 4. — B. 1–11. — URL: <https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2022/09/17B.T.-Tyrafov.pdf> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
18. Степашин С.В., Столяров Н.С., Шохин С.О., Жуков В.А. *Государственный финансовый контроль: учебник для вузов*. — Санкт-Петербург : Питер, 2004. — 557 с.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Budjet va ijro intizomini mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi [Elektron resurs]. — 2025-yil 23-iyul. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8325> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
20. International Auditing and Assurance Standards Board. *ISA 200. Overall Objectives of the Independent Auditor and the Conduct of an Audit in Accordance with International Standards on Auditing* [Elektron resurs] // *Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. — New York : IFAC, 2013. — URL: <https://www.iaasb.org/publications/2013-handbook-international-quality-control-auditing-review-other-assurance-and-related-services> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
21. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. «2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonun loyihasi va Budjetnomaga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi [Elektron resurs]. — 2024. — URL: <https://gov.uz/oz/imv/news/view/25967> (murojaat sanasi: 22.07.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>